Qabul qilindi: 14-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 21-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 28-oktabr 2026-yil

TURKISTONLIK O‘ZBEKLARNING YEVROPA DAVLATLARIGA MIGRATSIYASI VA DASTLABKI MILLIY UYUSHMALARNING SHAKLLANISH TARIXI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)

Elmurodova Nilufar Baxtiyor qizi
Buxoro innovatsion ta‘lim va tibbiyot universtiteti assistenti
BuxDU maqsadli tayanch doktoranti
elmurodovanilufar88@gmail.com +998 91 445-97-00



Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning 20–50-yillarida turkistonlik o‘zbeklarning Yevropa davlatlariga migratsiyasi, uning tarixiy-siyosiy omillari hamda dastlabki milliy uyushmalarning shakllanish jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, Turkistonda yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar, sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, siyosiy ta’qiblar va Ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq voqealarning turkistonlik o‘zbeklarning Yevropaga ko‘chib borishiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, Yevropaning Turkiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarida istiqomat qilgan o‘zbek muhojirlarining jamoaviy birlashuvi, milliy uyushmalar va madaniy-ma’rifiy tashkilotlarning vujudga kelishi hamda ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati o‘rganiladi. Maqolada muhojirlik sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, tarixiy xotirani asrab-avaylash, ona tili va madaniy merosni keyingi avlodlarga yetkazish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, o‘zbeklar, migratsiya, muhojirlik, Yevropa, diaspora, milliy uyushmalar, siyosiy muhojirlik, Ikkinchi jahon urushi, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, madaniy meros, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, milliy birdamlik.

“Ko‘mak” tashkilotining tashkil etilishi jarayonini Salimxon Tillaxonov quyidagicha tasvirlagan: “Ko‘mak” uyushmasining maqsadi Turkiston talabalariga oliy ta’lim asoslarini yaratish, chet elga va ichki Rossiyaga borib o‘qiyotganlarning ishlarini yengillashtirishdir. Tashkilot, birinchi navbatda, Toshkent dorilfununi va boshqa maktablarda o‘qiyotganlar

o‘qishni davom ettirayotgan paytlarida ko‘rgan qiyinchiliklarini tajribadan o‘tkazganlaridan keyin va kelgusida o‘qishlarini va yuqori ta’limlarini tamomlashlari uchun tashkil etildi. Rossiyada va chet elda duch kelinadigan qiyinchiliklarni ko‘zda tutib, 1922-yil 2-mayda “Ko‘mak” uyushmasi tashkil etilgan. Bu uyushma Sayyidalixo‘ja, Ibrohim Orifxonov, Kamol Dodaxo‘ja o‘g‘li, Rizqi Rahimiy, Abduvohid Jahongir, To‘lagan Mo‘min o‘g‘li, Ochil Xo‘ja, Ahmad Shukuriy, Tohir Shokiriy va Salimxon Tillaxonlar tomonidan tashkil etilgan. 1922-yilning may oyidan boshlab, Toshkentda xorijda o‘qish uchun talabalarni tanlash va ularni kerakli yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlash ishlari boshlangan. Bu jarayonda “Ko‘mak” uyushmasi muhim rol o‘ynagan.

Uyushmaga Fitrat va Cho‘lponlar g‘oyaviy rahbarlik qildilar, Abdullo Rahimboev, Akmal Ikromov, Elbek, Qayum Ramazon va Botular esa tashkiliy jihatdan katta yordam ko‘rsatganlar. Natijada, jadal amaliy ishlar boshlandi va jadid maktablarining iqtidorli o‘quvchilari Toshkentga kela boshlaganlar. “Ko‘mak” tashkiloti tomonidan xorijda o‘qishni istagan yuzlab talabalar ro‘yxati tuzildi. 1921-yil oxirida Toshkentda Rabfakda o‘qiyotgan talabalar orasida xorijda o‘qish uchun kurash harakati paydo bo‘ldi. Bu harakat ikki guruhga bo‘lindi: biri Moskva va Leningradda, ikkinchisi Germaniyada o‘qish istagini bildirgan yoshlar edi. Sa’id Ahmad Nazirov va Abduvosiq Muhammadovlar Moskva va Leningradga ketadigan guruhga, To‘lagan Mo‘min esa Germaniyaga ketuvchi guruhga yetakchilik qilganlar. Ularni “Ko‘mak” tashkiloti va vatan xizmatiga bo‘lgan ulug‘ orzu birlashtirgan. Abduvosiq Muhammadovning so‘zlariga ko‘ra, talabalarni xorijda o‘qitish orzusi 1920-yilda “Chig‘atoy gurungi”da ham mavjud edi. 1922-yilda “Ko‘mak” tashkiloti tuzilgach, amaliy ishlar boshlandi. Tashkilotning rahbarlari Fitrat va Botularning talabi bilan ko‘plab talabalar aholining mablag‘larini yig‘ishga jalb etildi. Bu mablag‘lar Germaniyada o‘qiyotgan yoshlarga yuborilgan. 1922/23 o‘quv yili boshlanishi bilan yuzlab turkistonlik iqtidorli talabalar Germaniyaning Berlin, Rossiyaning Moskva va Sankt-Peterburg, Ozarboyjonning Boku va Ganja shaharlariga yo‘l oldilar. Ular asosan, Fitrat va Fayzulla Xo‘jaev ajratgan Buxoro Xalq Respublikasi sarmoyasi, “Ko‘mak” tashkiloti tomonidan yig‘ilgan mablag‘lar va ba’zilari ota-onalarining hisobidan yo‘lga chiqishgan. G‘ozi Yunusning “Baroqxon talabasi” imzosi bilan yozilgan xabarida Buxoro Xalq Jumhuriyati

“Ko‘mak” uyushmasi iltimosiga ko‘ra ayrim turkistonlik talabalar uchun ham homiylikni o‘z zimmasiga olgan. Jumladan, Buxoro ikki talabaga (Sayyidalixo‘ja va Ahmad Shukuriy) homiylik qilgan va yana ikki talaba uchun (Sattor Jabbor va Vali Qayumxon) va’da bergan. U Buxoro hukumatiga minnatdorchilik bildirib, hammani “Ko‘mak” uyushmasiga yordamga chaqirgan. Bu holat butun Turkiston ziyolilari tomonidan ulkan hodisa sifatida qabul qilindi.

Cho‘lpon matbuotda Germaniyada o‘qiyotgan Abduvahhob Murodiyning ta’minotsiz qolganligi va agar o‘z yurtidan yordam bo‘lmasa, o‘qishni tashlashga majbur bo‘lishi mumkinligini yozgan. Uning qiyin va og‘ir holatda qolganligini Germaniyaga yangi yetib borgan talabalarimizdan Sayyidalixo‘ja va Ahmad Shukuriy ham tasdiqlaganlar. Toshkent yoshlari yig‘ilishlarida bu masala ko‘tarilib, Abduvahhob Murodiy ta’minoti uchun tashabbus boshlandi. M. Usmoniy tomonidan Toshkentda maorif-madaniyat ishlari bilan shug‘ullanayotgan bir guruh yoshlar tashabbusi bilan Abduvahhobning ta’minoti uchun moddiy ko‘mak yig‘ilgani haqida xabar beriladi. Bu ko‘mak Munavvarqori, Sayyid Nosir Mirjalil, Abdulhamid Sulaymon, Shokirjon Rahimiy, Asadulla Xo‘jaxonov, Salimxon Tillaxon va boshqalarning hissasi va 6 dekabr kuni o‘tkazilgan adabiyot kechasidan olingan foyda hisobidan yig‘ilgan. Jami 139,700 so‘m mablag‘ Abduvahhob Murodiyga yuborilgan. Jurnalist Ahmadjon (Yoqubov) faxr bilan Rossiya, Ozarboyjon va Germaniyada o‘qiyotgan ko‘plab talabalarimiz borligini va ularning shijoati vatan istiqboliga qaratilganligini ta’kidlaydi. Bu jarayon, albatta, Turkiston ziyolilari va yoshlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari natijasida amalga oshgan. “Ko‘mak” tashkilotining rahbarlaridan biri, Ahmadjon Ibrohimov Germaniyaga yetib borishi bilan Berlin shahridan Turkistonga xat yo‘llagan va tashkilotni rivojlantirish uchun o‘z tavsiyalarini bayon etgan.

Maqolada “Ko‘mak” qisqa fursat ichida Rossiya va Yevropaga bir qancha o‘quvchilarni yuborishga muvaffaq bo‘lgani ta’kidlangan. Ushbu ishlarni davom ettirish va kuchaytirish kerakligi aytib o‘tilgan. “Ko‘mak” uyushmasidagi o‘rtoqlarning vazifasi bu ishlarni davom ettirishdir. Kelajakda Turkiston ham minglab o‘quvchilarni chet elga yuborishi mumkinligi haqida umid bildirilgan. Berlindagi talabalarimiz o‘rtoq Sayyidalixo‘ja va boshqa faol yoshlar “ko‘mak” tashkilotining bo‘limini ochishgan va

“Ko‘mak” nomida jurnal chiqarishni rejalashtirishgan. Tashkilotni rivojlantirish uchun “Ko‘mak” uyushmasini butun Turkiston yerlik xalqi “Ko‘mak” deb atash, barcha viloyatlarda bo‘limlar ochish, “Ko‘mak”ni targ‘ib qilish, gazeta va jurnallarda maqolalar chop etish, Ramazon kirishi bilan har bir shahar va qishloqlardan ko‘mak to‘plash, hayit kuniga “Ko‘mak” uyushmasining ahamiyatini tushuntirish uchun gazeta chiqarish, yoshlarning qiziqishlarini o‘rganish va Rossiya, Yevropa, Amerika dorilfunun hamda o‘rta maktablarining dasturlari bilan tanishtirish kabi fikrlar ilgari surilgan. Bu sharoitda Munavvar qori Abdurashidxonov, M. Ramziy, Sh. Rahimiy, Zahiriddin A’lam, Elbek, Sh. Ehson, S. Tillahonov, H. Sulaymon, X. Oxundiy va boshqalar tomonidan Turkiston sho‘rolar jumhuriyatidagi ma’rifatparvar yoshlarga murojaat e’lon qilindi. Unda Turkistonning porloq kelajagi va qorong‘ulikdan qutulishi faqat ma’rifatga bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. Turkiston xalqi ma’rifat va ma’naviyat narvonining birinchi pog‘onasiga endigina qadam qo‘ydi, deyiladi. Shuningdek, butun o‘lkadagi o‘zbek ma’rifat-madaniyat xodimlariga ma’rifatning yuksalishi uchun zo‘r g‘ayrat bilan ishlashga, ma’rifat va madaniyat ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun Toshkentda “Nashri muarrif” nomida jamiyat ochish va bu jamiyat rasmiylashganidan so‘ng matbuotda e’lon qilinishi bilan darhol jamiyatning har yerda bo‘limlarini ochishga kirishish kerakligi to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi. Ammo, bu maqsadlarni amalga oshirish uchun sovet hukumati tomonidan umuman imkon berilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азамова Г.А. Хориждаги ўзбеклар: ижтимоий-сиёсий ва ҳуқуқий муаммолари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 1995. – 116 б.

2. Andican, A. Ahat. Cedidizmden Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi / A. Ahat Andican. – İstanbul: Emre Yayınları, 2020. – 308 s.

3. Яссавий, Ш. Туркистон аччиқ ҳақиқатлари / Ш. Яссавий. – Истанбул, 1984. – 199 б.(Arab imlosidagi o‘zbek tilida).; Andican, A. Ahat. Cedidizm’den Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi. – Istanbul: Emre Yayınları, 2003. – 942 bet.

4. Ҳайитов Ш.А. XX асрда ўзбек муҳожирлиги тарихи: Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. – Тошкент, 2009. – 284 б

5. Ҳайитов Ш.А. Туркиядаги ўзбеклар этнографиясининг Ўзбекистон ўзбеклари билан қиёсий таҳлили // Тарихий хотира: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – VIII китоб. – Бухоро, 2015. – Б. 87–90.

6. Ҳайитов Ш.А. Туркияга ўзбеклар кўчиб боришининг тарихий босқичлари // Тарихий хотира: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – VIII китоб. – Бухоро, 2015. – Б. 36–38.

